UO‘K 94 (575.1)

# YANGI IQTISODIY SIYOSATNING TURKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIGA TA’SIRI

**Erkayev Ergashali Maksudovich,**
*Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti,*
*tarix fanlari nomzodi*

**DOI:** https://doi.org/10.5281/zenodo.20428064

***Annotatsiya****: Maqolada Yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston o‘lkasi qishloq xo‘jaligiga ta’siri birlamchi manbalar, davriy matbuot nashrlari va ilmiy adabiyotlardagi materiallar yordamida batafsil tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi iqtisodiy siyosat, Turkiston o‘lkasi, sovet hokimiyati, qishloq xo‘jaligi, bozor munosabatlari, ijtimoiy munosabatlar.*

***Аннотация:*** *В статье подробно анализируется влияние Новой экономической политики на сельское хозяйство в Туркестане с использованием первоисточников, периодических изданий и материалов научной литературы.*

***Ключевые слова:*** *Новая экономическая политика, Туркестанский регион, советская власть, сельское хозяйство, рыночные отношения, социальные отношения.*

***Abstract:*** *The article provides a detailed analysis of the impact of the New Economic Policy on agriculture in Turkestan using primary sources, periodicals, and scientific literature.*

***Keywords:*** *New Economic Policy, Turkestan region, Soviet power, agriculture, market relations, social relations.*

**Kirish.** XX asrning 20-yillari boshlarida Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan “harbiy kommunizm” siyosati va oziq-ovqat razvyorstkasi qishloq xo‘jaligi hamda iqtisodiy hayotni og‘ir inqirozga olib keldi. Dehqon xo‘jaliklarining qisqarishi, sug‘orish tizimlarining izdan chiqishi va ishlab chiqarishning kamayishi aholi turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1921-yildan boshlab joriy etilgan Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) esa qishloq xo‘jaligini tiklash, bozor munosabatlarini qisman rivojlantirish va dehqonlarni iqtisodiy rag‘batlantirishga qaratildi. Natijada kooperatsiyalar faoliyati kengaydi, kreditlash tizimi yo‘lga qo‘yildi hamda paxtachilik va sug‘orish tizimlarini tiklash ishlari amalga oshirildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzuni yoritishda O‘zbekiston va Turkiston tarixiga oid ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari hamda davriy matbuot materiallaridan foydalanildi. Jumladan, “O‘zbekistonning yangi tarixi” va “O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yy.)” asarlarida Yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston iqtisodiy hayotiga ta’siri, ayniqsa qishloq xo‘jaligi va agrar munosabatlardagi o‘zgarishlar umumiy tarixiy nuqtayi nazardan yoritilgan.

M. Po‘latovning “Perexod Turkestanskoy ASSR k Novoy ekonomicheskoy politike” asarida Turkiston ASSRda NEP siyosatining joriy etilishi va uning iqtisodiy natijalari

tahlil qilingan. A.A. Golovanovning tadqiqotlarida esa O‘zbekiston dehqonlarining ijtimoiy ahvoli, agrar munosabatlar va qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar ilmiy asosda ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Mavzuni yoritishda birlamchi arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari hamda ilmiy adabiyotlar qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganildi. Jumladan, O‘zbekiston Milliy arxividagi fond hujjatlari orqali Turkiston ASSRda Yangi iqtisodiy siyosatning qishloq xo‘jaligiga ta’siri, kreditlash tizimi, kooperatsiyalar faoliyati va irrigatsiya ishlari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida statistik ma’lumotlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar hamda tarixiy manbalarni solishtirish usuli qo‘llanildi. NEP siyosatining agrar sohadagi ijobiy va salbiy jihatlarini ochib berishda tarixiy-qiyosiy va muammoviy yondashuvlardan foydalanildi. Shu asosda Turkiston qishloq xo‘jaligida yuz bergan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil etildi.

**Tahlillar va natijalar.** Yangi qabul qilingan iqtisodiy siyosat Turkiston o‘lkasining qishloq xo‘jaligi, bozor munosabatlari hamda sanoat tarmoqlariga ijobiy ta’sir o‘tkazib, iqtisodiyotda ham jonlanishga sabab bo‘ldi. Ungacha bo‘lgan davrda amalda bo‘lgan “harbiy kommunizm” va “oziq-ovqat razvyorstkasi” kabi iqtisodiy-siyosiy choralar o‘lkaning yuqorida ta’kidlangan sohalarini tang ahvolga keltirib qo‘ygan edi. Sovet hokimiyatining dastlabki 4 yilida amalga oshirilgan “harbiy kommunizm” deb nom olgan iqtisodiy siyosat eski ijtimoiy munosabatlarni yo‘q qilishga, jamiyatda sinfiy kurashni rivojlantirishga qaratilgan yo‘l aholi turmush darajasini yomonlashtirdi, xolos. Sovetlar davrida yozilgan adabiyotlarda ushbu “harbiy kommunizm” siyosatining salbiy oqibatlarini fuqarolar urushi bilan bog‘lab kelingan bo‘lsa-da aslida bu siyosat bolsheviklarning radikal choralar bilan jamiyatni yangi – sotsialistik yo‘lga olib o‘tish rejasining bir qismi edi xolos. Lekin butun Rossiyada bo‘lganidek Turkistonda ham aholining turmush darajasi bu davrda keskin tushib keta boshladi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi shu darajada yuz berdiki, natijada sovet hokimiyatining yashash yoki yashamasligi gumon bo‘lib qoldi. “Harbiy kommunizm” siyosati Turkiston Avtonom Respublikasi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini tushkunlik holatiga, ayniqsa, agrar sohani halokatli ahvolga olib keldi. Masalan, Turkistonda o‘lka ishlab chiqaruvining umumiy hajmi 1920-yilda 1914-yilga nisbatan 80%ga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 1914-yilgi darajaga nisbatan 1921-yilda 48,8%ga qisqardi. Umuman, shulxa, paxta yog‘i, kunjara, paxta tolasini ishlab chiqarish 17 barobarga kamaydi.[1] Sug‘orish inshootlari misli ko‘rilmagan darajada barbod bo‘ldi. Chorvachilikka jiddiy ziyon yetdi. Sovet hokimiyati tomonidan yer-suv islohotini o‘tkazishga urinish ekin yerlarining kamayishiga olib keldi. Tortib olingan yerlarning bir qismi yersizlarga bo‘lib

berilgan bo‘lsada, ularda xo‘jalik yuritish uchun mablag‘ yetishmasligi, hukumat tomonidan kreditlash tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, kredit uchun mablag‘larning kam ajratilishi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun og‘irlashtirdi xolos. “Harbiy kommunizm” siyosati dehqonni yerga yangi ekin turlarini ekishni rag‘batlantirmas va shu sabab ko‘plar ekin ekilmaslik yo‘lini tutar edi. Davlat tomoniga o‘tgan yerlarda tuzilgan artellar nomiga bo‘lib, yer amaldorda yoki yer egasining o‘zida, ba’zida qarovsiz qolar edi. Sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga o‘tkazilishi o‘lkadagi asosiy sanoat mahsuloti paxtani birlamchi qayta ishlash deyarli to‘xtab qolishiga, bu esa, sanoatga qo‘shilib, paxtachilikka ham qattiq zarba bo‘ldi. Natsionalizatsiya qilingan korxonalarning “hech kimniki” bo‘lib qolgan mulki qarovsiz holga tushib qolgan. 1921-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Turkiston Respublikasi Xalq Xo‘jaligi Markaziy Kengashi (XXMK) tasarrufida 861 ta korxona bo‘lgan, shundan 405 tasi ishlamagan 1921-yilga kelib o‘lkadagi ishchilar soni deyarli ikki barobarag kamayib Turkiston ASSRdagi aholining 0,8 % iga tushib qoldi.[2] Dehqon xo‘jaliklari va ishga yaroqli aholining soni sezilarli ravishda kamaydi. Xususan, 1921-yilning boshlariga kelib deqon xo‘jaliklarining soni 1915-yildagiga nisbatan 15%, ularda ishlovchi ishga yaroqli erkaklarning soni 36%ga qisqardi. Boshqacha aytganda, oilalardan uchdan bir qismidan ko‘prog‘i boquvchisiz qoldi. Sovet davlatida fuqarolar urushi tugaganidan so‘ng, sovet hokimiyati oldida xalq xo‘jaligini tiklash bo‘yicha shoshilinch vazifalar ko‘ndalang bo‘ldi.

Oziq-ovqat razvyorstkasining soliq bilan almashtirilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ko‘paytirishning iqtisodiy rag‘batlarini vujudga keltirishda yagona to‘g‘ri g‘oyada ediki, bunda dehqon hosilning qat’iy belgilangan qismini topshirgach, unga o‘z mehnati mahsulini o‘zi istagancha tasarruf etish huquqi berilardi... “Sotsialistik jamiyatni barpo etish” vazifasiniamalga oshirishga yangicha taktik yondashuvlar 1921-yil bahoridan e’tiboran “harbiy kommunizm” siyosati o‘rniga joriy etilgan Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) butun mamlakatda xalq xo‘jaligini qayta tiklash, iqtisodiyotni ma’lum rivojlanish yo‘liga solish imkoniyatini yaratdi. 1918 – 1920-yillarda o‘lka ijtimoiy-siyosit hayotida amalda bo‘lgan “harbiy kommunizm siyosati o‘rniga oziq-ovqat razvyorstkasini 1921-yil yozidan e’tiboran Yangi Iqtisodiy Siyosat(NEP)ga, oziq ovqat solig‘iga almashtirilishi jamiyat hayotiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazgandi. Yangi Iqtisodiy Siyosat davrida jamiyatda bozor munosabatlarining ayrim elementlari paydo bo‘lib, dehqon xo‘jaliklari o‘zlari yetishtirgan qishloq xo‘jaliklari mahsulotlarining ma’lum ortiqcha qismini bozorda sotish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Lekin 20-yillarning oxirida bu siyosat o‘zining mohiyatini yo‘qota boshladi va 1929-yilda batamom bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirkorlikka qaytadan chek qo‘yilib tugatildi. Markaz respublikamizning yer osti va yer usti qazilma boyliklarini, xomashyo manbalarini talon-taroj qilib, arzon ishchi kuchidan foydalanib, o‘lkada mumkin qadar ko‘proq foyda olish harakatida bo‘ldi. Bu ayniqsa

millionlab dehqonlar hisobidan amalga oshirildi.[3] Yangi Iqtisodiy Siyosat joriy etilishi natijasida Turkiston Respublikasida sanoat tarmoqlari ikki xil yo‘nalishda rivojlandi:

- Eski zavodlarni tiklash;
- Yangi korxonalar va tarmoqlar tashkil etish.

Turkiston ASSRda 1920 – 1922-yillarda o‘tkazilgan yer suv islohotiga qaramay, o‘zbek qishloqlaridagi mavjud kam yerlilik va yersizlik holatlari saqlanib qolmoqda edi. O‘zbek qishloqlaridagi dehqon xo‘jaliklarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shunda ediki, yetirishtirilgan mahsulotlarni 40% ini o‘z iste’moli uchun ishlatsa, qolgan 60% qismini (asosan paxta, meva hamda poliz mahsulotlari) bozorda sotar edi. Bundan tashqari, kam mablag‘li dehqonlar hosil yetishtirish uchun boy xo‘jaliklardan katta foiz hisobiga qarz olar, dehqonchilikdan topgan daromadining asosiy qismini qarzlarini to‘lashga sarflardi. Bundan tashqari sug‘oriladigan yerlarning qariyb 30% dan ortiqrog‘i “boy va quloq xo‘jaliklari” hisobiga to‘g‘ri kelib, xususan Farg‘ona oblastida 39% ekin yerlariga, Samarqand oblastida esa 32,7% yerlarga egalik qilar, bu holat boshqa joylarda bundan kam emas edi.[4] Shuning uchun ham Turkistonda 1920-yildan e’tiboran qishloq xo‘jalik kooperatsiyalar qarz beruvchi tashkilot sifatida tashkil etila boshlandi.

Turkistondagi yangi iqtisodiy siyosat yo‘li Turkiston Kompartiyasining 1921-yil 11 – 20-avgust kunlarida o‘tkazilgan VI syezdida va respublika sovetlarining shu yilning 21 – 28 avgust kunlari bo‘lib o‘tgan X qurultoyi qarorlarida tasdiqlandi.[5] 1921-yilning o‘zida 40 ta paxta tozalash va 2 ta yog‘ zavodi qayta tiklandi. Toshkentda yiliga 120.000 pud kunjut kanopi yetkazib beradigan zavod qurilishi tugallandi. 1923-yilga kelib Turkiston Respublikasida 23 ta, 1924-yili esa 95 ta paxta tozalash zavodlari ishga tushirildi. Ular ishlab chiqargan mahsulot 57.8 mln. so‘mni tashkil qildi. Tiklash ishlari yog‘-moy sanoatida ham yuqori sur’atlar bilan bordi. 1923-yili bu sanoat korxonalari 61.000 pud toza moy ishlab chiqargan bo‘lsa, 1924-yilga kelib bu miqdor 201.000 pudni tashkil etdi.[6]

O‘lkada paxtachilikni tiklash irrigatsiya tizimining holatiga mutloq bog‘liqligini hisobga olib Sovet hukumati 1923-yil uchun sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash ishlariga 6 mln. so‘m, 1924-yil uchun esa byudjet mablag‘lari hisobidan 6,5 mln so‘m (oltin hisobida) ajratdi. Bu mablag‘larning ortishi bilan birga dehqonlarning sug‘orish tarmoqlarini tozalash va ta’mirlash ishlaridagi ishtiroklari ham ortib boraverdi. Dehqon xo‘jaliklari 1923-yilda 3,5 mln. kun mehnat majburiyatini o‘tab, 3,5 mln. so‘mlik ish bajargan bo‘lsa, 1924-yilda 2,5 mln. kun va 3,8 mln. so‘mlik ish bajardilar.[7]

Agrar islohotlar o‘tkazishning asosiy vazifalari TKPning 1920-yilning 12 – 20 sentabr kunlari o‘tkazilgan V syezdi va Turkiston sovetlarining 1920-yilning 19 – 25 sentabr kunlari o‘tkazilgan IX syezdida belgilab berilgan edi.[8] 1921-yilning 21-sentabrida Turkiston MIK “Qishloq xo‘jalik kooperatsiyalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi

102-qarori hamda 1922-yil 13-martdagi Turkiston MIKning “Qo‘shchi” ittifoqi Markaziy Kommiteti tarkibidagi vaqtinchalik qishloq xo‘jalik kooperatsiyasining Markaziy boshqaruvini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorlari bu sohaning rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi.[9]

1922-yil aprel-sentabr oylarida Farg‘ona viloyatining 8 uyezdida – Isfara, Qaynar, Aravan, Konibodom, Kuchnak , Andijon, Jalolobod va Marg‘ilon qishloq xo‘jaligi kooperativlari 450 pud guruch va Turkiston qishloq xo‘jaligi uyushmasi tomonidan 3 mln. so‘m kredit yordam ko‘rsatildi. 1923-yil fevralda Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi qoshidagi qishloq xo‘jaligiga yordam berish uyushmasi orqali Turkiston o‘lkasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida oltin hisobida 1,5 mln. so‘m mablag‘ ajratdi.[10]

Yangi Iqtisodiy Siyosatni amalga oshirishda banklarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi. Dehqon xo‘jaliklariga kredit berish maqsadida 1923-yil may oyida RSFSR hukumati Davlat Qishloq Xo‘jaligi bankini ta’sis etdi. Uning filiallari Turkiston ASSRda ham ochilib O‘rta Osiyo Qishloq Xo‘jaligi Banki (Selxozbank) deb nomlanib, boshlang‘ich mablag‘i oltin hisobida 3 mln. so‘mni tashkil etgan. Bank o‘z faoliyatini kredit shirkatlari va qishloq xo‘jalik kooperatsiyalari orqali amalga oshirar edi. Natijada bunday shirkatlar soni 1923-yil oxiriga kelib1169 taga ko‘payib aylanma mablag‘i oltin hisobida 58,8 mln so‘mga yetdi.[11]

1924-yilning aprel oyigacha Qishloq xo‘jalik banki TurkSelsoyuz va boshqa qishloq xo‘jalik kooperatsiyalari hamda davlat tashkilotlariga qishloq xo‘jalik ssudalari uchun 2.183.076 so‘m sarfladi, shu jumladan qishloq xo‘jalik kredit shirkatlariga 888.076 so‘m miqdorida kredit ajratdi. Ular o‘z navbatida 52 286 nafar a’zolariga ssuda berdi.[12] Ammo, shuni ta’kidlash kerakki, Qishloq xo‘jalik banki tashkil etilgan dastlabki yilda uyushmalarga yuqori 22-35% gacha kredit ajratdi. Shirkatlarning noroziliklaridan so‘ng 12% gacha tushurilib, kooperatsiyaga a’zo bo‘lmagan shaxslar uchun kredit foizi 37-39% etib belgilandi .[13]

Qishloq xo‘jaligini kreditlashni moliyalashtirish uchun Paxta qo‘mitasi, Turkpilla kabi tayyorlov tashkilotlar mablag‘larini jalb etish taklif etildi. 1924-yil may oyida Turkiston paxta qo‘mitasi, Turkiston qishloq xo‘jalik uyushmasi, Qishloq xo‘jalik banki ishtirokida o‘tgan hamkorligidagi yig‘ilishda barcha turdagi qishloq xo‘jalik kooperatsiyalarini yagona qishloq xo‘jalik kreditlash uyushmaga birlashtirib Turkiston qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi uyushmasi (Turkselsoyuz) o‘rniga Turkiston qishloq xo‘jaligini kreditlash uyushmasi(Turkkreditselsoyuz) tuzildi.[14]

1924 – 1925-yillarda O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik banki tomonidan O‘zbekiston hududlarida kam quvvatli dehqon xo‘jaliklariga 3.975.2 ming so‘m mablag‘ ajratildi. Bu mablag‘lar uzoq va qisqa muddatli bo‘lib, uzoq muddatli kreditdan bank yiliga 6%, uyushma esa 2%, jami bo‘lib 8% ustama belgilangan. Qisqa muddatli kreditlarda esa 6

oydan 14 oygacha muddat belgilanib yillik foizi 12%ni bank , uyushma 3 %, jami 15 %ni tashkil etib, har bir uyushmaga 10.320 so‘mdan, har bir dehqon xo‘jaligiga 60-70 so‘mdan mablag‘ to‘g‘ri kelgan. Qishloq xo‘jalik kooperatsiyalarining moliyaviy ta’minlanishining yaxshilanishi shundaki ,agar 1924-yil mobaynida 19.8 mln. aylanma mablag‘ga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1925-yilning 6 oyi ichida 21,9 mln. so‘mga oshdi. 1925-yil 1-yanvar holatiga tashkilot a’zolarining soni 161783 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shu yilning iyun oyiga borib qariyb 260877 nafarga yetdi.[15]

Ushbu davrda Turkiston ASSRda o‘tkazilgan Yangi Iqtisodiy Siyosat va agrar islohotlar natijasida ko‘pgina kambag‘al xo‘jaliklar kooperatsiya yordamida faol tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanib, xo‘jalik yuritishning natura shakllaridan bozor shakllariga o‘ta boshladilar. Natijada o‘lkada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o‘sishiga, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini qisman bo‘lsa-da rivojlanishiga olib keldi. Qishloq xo‘jalik kooperatsiyalari qishloqda bozor munosabatlarini tiklash va xo‘jalik hayotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Yangi iqtisodiy siyosat Turkiston qishloq xo‘jaligini inqiroz holatidan chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi. NEP davrida oziq-ovqat solig‘ining joriy etilishi, kooperatsiyalar faoliyatining kengayishi va kreditlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi dehqon xo‘jaliklarini iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirdi. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi qisman tiklandi, sug‘orish tizimlari yaxshilandi hamda bozor munosabatlari rivojlana boshladi. Biroq 1920-yillarning oxiriga kelib ma’muriy-buyruqbozlik siyosatining kuchayishi NEPning tugatilishiga olib keldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “O‘zbekistonning yangi tarixi”. 2-kitob. O‘zbekiton sovet mustamlakachiligi davrida.-Toshkent – 2000.
2. *Po‘latov M.* “Perexod Turkestanskiy ASSR v Novoy Ekonomicheskoy Politiki(1921-1922).-Tashkent – 1968.
3. *Murtazayeva R.X. va b.* O‘zbekiston tarixi. -T. – 2000.
4. *Golovanov A.A.* Krestyanstvo Uzbekistana evolyutsiyasotsialnogo polojenie 1917-1937yy.// Tashkent – 1992.
5. O‘zbekiston tarixi(1917-1991 yy).-Toshkent – 2019.
6. *Rajabov Q., Haydarov M.* Turkiston tarixi-T. – 2002.
7. O‘z MA, 215-fond, 1-ro‘yxat, 473-jild.
8. O‘z MA, 215-fond, 1-ro‘yxat, 1459-ish.
9. Sotsialistichekoe pereustoroistvo selskogo xozyaystva v Uzbekistane.-Tashkent. 1962.
10. O‘z MA, 25-fond, 1-ro‘yxat .
11. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yy)// Toshkent – 2019.
12. O‘z MA, 215-fond 1-ro‘yxat 473-ish.
13. O‘z MA, 17-fond, 1-ro‘yxat, 882-ish.
14. O‘z MA, 81-fond, 1-ro‘yxat. 3097-ish.
15. O‘z MA, 86-fond, 2-ro‘yxat, 3098-ish.